

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.05/07.06.2024 Qx.13.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

“O‘ZDAVYERLOYIHA” DAVLAT ILMIY-LOYIHALASH INSTITUTI

XAKIMOV BOXODIRJON BAXTIYORJON O‘G‘LI

**AGRAR VA IJTIMOIIY SOHALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TOG‘
YAYLOVLARIDAN FOYDALANISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH
(Toshkent viloyati misolida)**

06.01.10-«Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi»

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

UDK: 631*268.4:528.88:504.064.2.001(575.111)(043)

**Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Xakimov Voxodirjon Baxtiyorjon o'g'li

Agrar va ijtimoiy sohalar samaradorligini oshirishda tog' yaylovlaridan foydalanish tizimini takomillashtirish (Toshkent viloyati misolida).....3

Хакимов Боходиржон Бахтиёржон угли

Совершенствование системы использования горных пастбищ для повышения эффективности сельскохозяйственного и социального сектора (на примере Ташкентской области).....21

Khakimov Bokhodirjon Bakhtiyorjon ugli

Improving the system of use of mountain pastures for increasing the efficiency of the agricultural and social sectors (in the example of Tashkent region).....41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.05/07.06.2024 Qx.13.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

“O‘ZDAVYERLOYIHA” DAVLAT ILMIY-LOYIHALASH INSTITUTI

XAKIMOV BOXODIRJON BAXTIYORJON O‘G‘LI

**AGRAR VA IJTIMOY SOHALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TOG‘
YAYLOVLARIDAN FOYDALANISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH
(Toshkent viloyati misolida)**

06.01.10-“Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi”

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2020.3.PhD/Qx647 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya “O‘zdavyerloyiha” davlat-ilmiy loyihalash institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdau.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta‘lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ruzmetov Maksud Ismoilovich
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Safarov Eshqobil Yuldashevich
texnika fanlari doktori, professor

G‘ofirov Azim Jumayevich
qishloq xo‘jaligi fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand Davlat arxitektura - qurilish universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/07.06.2024.QX.13.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning “_____” _____ 20____ yil soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 260-48-00, faks: (+99871) 260-38-60, e-mail: tuag_info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel.: “_____” _____ kuni tarqatildi.

(2024 yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

Raupova N.B.

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

Sodiqova G.S.

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.n.,
dotsent

Norqulov U

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, q.x.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo bo'yicha yaylov yerlarining umumiy maydoni 3,377 mlrd gektarni tashkil etadi. Shundan qishloq xo'jaligida foydalanishdagi yaylov va pichanzorlar esa 2.266 mln gektar (67,1%), 827 mln gektar (24,5%) doimiy yaylovlar va o'tloqlar, 790 mln gektar (23,4%) barqaror xolatdagi doimiy foydalanishdagi yaylov yerlarni tashkil etadi¹. Masofadan zondlash orqali yaylov yerlarida kechayotgan degradatsiya jarayonlarini oldini olish, yaylov yerlari mahsuldorligini tiklash va ulardan samarali foydalanish bo'yicha prognozlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jixatdan yaylov yerlaridan to'g'ri va samarali foydalanish masalalari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda turli omillar ta'sirida yaylovlarda yuzaga kelayotgan o'zgarishlarni hamda degradatsiya ko'rsatkichlarini masofadan zondlash orqali aniqlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada masofadan zondlash orqali yaylov yerlarni monitoringini yuritishda mexanizmlar yaratish, tog'oldi yaylov yerlarida o'simliklar bilan qoplanganligi darajasini, o'rtacha hosildorligini aniqlash hamda yaylov yerlari monitoringini yuqori aniqlikda yuritishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamiz umumiy yer fondining 46,5 foizni yaylov yerlari tashkil etadi (21,1 mln gektar). O'rganishlar davomida (35-40 yil) 78 foiz maydon degradatsiyaga uchrashi natijasida yaylov o'simliklari soni va hajmi kamayib borishi qayd etilgan. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o'zlashtirish, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish, agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravar oshirish" muhim strategik vazifalar sifatida belgilab berilgan. Shu sababli mamlakatimiz qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirishda masofadan zondlash orqali yaylov yerlaridan foydalanishni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2019–yil 20–maydagi "Yaylovlar to'g'risida"gi O'RQ-538-son qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–yil 10–iyundagi "Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-277–son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000–yil 23–dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasida yer monitoringi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi 496 –sonli qarori, 2018–yil 23–apreldagi 299–son «Ma'muriy hududiy birliklar chegarasini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o'tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish» to'g'risidagi qarori, 2018–yil 7–noyabrdagi "Hayvonot va o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to'g'risida"gi 914–son qarori, 2019–yil 24–sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 737-son qarori, 2024-yil 12-martdagi

¹ <https://www.bigenc.ru/c/pastbishche-12b000>

“Yaylovlar va ulardagi yer osti suvlarini muhofaza qilish hamda yaylov degradatsiyasiga qarshi kurashish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 126-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning III. “Axborotlashtirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish”, V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofazasi” ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyoning turli mintaqalarida va mamalakatimizda qishloq xo‘jalik yerlari, xususan yaylov yerlaridan foydalanish asoslarini ishlab chiqish, yaylov yerlar monitoringiga qaratilgan jarayonlari, uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish hamda yaylov yerlaridan samarali foydalanishga qaratilgan ishlar S.A.Avezbaev, R.A.Turaev, M.I.Ruzmetov, G‘.T.Parpiyev, A.S.Chertoviskiy, G‘.A.Tolipov, B.A.Adilov, Sh.K.Narbaev, N.Ch.Namozov, O.O‘.Davronov, M.N.Norqulov, xorijlik olimlardan I.G.Jurkin, S.V.Shaytura, I.K.Lure, V.V.Sherbakov, O.L.Kuznesov, A.A.Nikitin, Ye.N.Cheremisina, A.V.Konoplev, I.V.Kustov, P.A.Krasilnikov, K.Yu.Silkin, A.G.Prixoda kabilar tomonidan olib borilgan. Lekin, O‘zbekistonning tog‘ yaylov yerlarini masofadan zondlash orqali monitoring qilishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti “O‘zdavyerloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan hamda “Geo Project institut” MCHJ ning 2020-yildagi T19 sonli xo‘jalik shartnomasi asosida shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-son “Ma‘muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori doirasida (2020-2022 yy.) bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Agrar va ijtimoiy sohalar samaradorligini oshirishda masofadan zondlash orqali tog‘ yaylovlaridan foydalanish tizimini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

masofdan zonlash yordamida yaylov yerlar monitoringini yuritish mexanizmini ishlab chiqish;

tog‘ yaylovlarining iqlim va tuproq sharoitlaridan kelib chiqib, vegetatsiya -1 – 0 – 1 darajali ko‘rsatkichli indekslarda hamda iqlim ko‘rsatkichlari yog‘ingarchlik (mm), namlik (%)larda ishlab chiqish;

tog‘ yaylovlarining vegetatsiya va namlik indeksleri asosida korelyatsion koeffitsientlarini aniqlash;

geodezik punktlarni bog‘lash orqali yaylov yerlardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan yer tuzish loyihalarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani (Bog'iston va Pargos massivlar) yaylovlari qamrab olindi.

Tadqiqotning predmeti asosini tog' yaylov yerlarining holati, masofadan zondlash materiallari, o'simliklar bilan qoplanish darajalari kabilar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar jarayonida analitik usulda qayta ishlash orqali masofadan zondlash, qiyosiy taqqoslash, monitoring qilish, geostatistik tahlillar qilish hamda axborotlarni raqamlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

agrar va ijtimoiy sohada yaylov yerlar monitoringini yuritish samaradorligini oshirishda yaylov yerlarida iqlim ma'lumotlari va vegetatsiya indeksleri asosida ArcGIS > Raster algoritim > Satelite System > NDVI > LST > atributlar ketma-ketligidan foydalanish mexanizmi takomillashtirilgan;

Landsat-8-9 ning 1-2 kanallaridan foydalanib tog' yaylovlarining iqlim va tuproq yuza (0-15 sm) qatlami, tuproq emmisiaviylik qiymati, yuqori yorug'lik (fotosintez) ma'lumotlari asosida vegetatsiya indeksleri hamda namlik indekslerini masofadan zondlashdagi 80% aniqlikdan 90% aniqlik darajasiga oshirilganligi asoslangan;

Pargos hamda Bog'iston tog' yaylov yerlarida umumiy maydoni 40 gektar bo'lgan maydonning iqlim ma'lumotlarining yer ustki harorati (LST) va vegetatsiya indeksleri (NDVI) asosida ularning korelyatsion koeffitsienti asoslantirilgan;

agrar va ijtimoiy sohalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan yaylov yerlardan foydalanishda Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani, Bog'iston hamda Pargos massivlarida 40 gektardan ortiq sog'lomlashtirish hamda rekratsion maqsadlar uchun mo'ljallangan yerlarda milliy koordinata sistemalaridan foydalangan holda geodezik punktlarni bog'lash orqali NDVI, NDMI, NDWI hamda LST indeksleri asosida har ikkala monitoring punktning 20 gektardan yer maydonini doimiy ma'lumotlari shakillantirilib yer tuzish loyiha ishlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

«O'zbekistonning tabiiy yaylov va pichanzorlarida geobotanik tadqiqotlar o'tkazish» bo'yicha ilmiy-uslubiy qo'llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan;

«Tabiiy yaylov o'simliklarining monitoringini yuritish ishlarini amalga oshirish» bo'yicha uslubiy qo'llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan;

masofadan zondlash ma'lumotlari va Crop monitoring dasturiy ta'minoti yordamida Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani tog' hududlari yaylov yerlarining 1:10 000 masshtabli elektron raqamli xaritasi hamda Pskom va Chotqol tog' tizmalari yon bag'rida joylashgan tog' yaylov yerlarida doimiy monitoring punkt o'rnatilgan va amaliyotga joriy qilingan;

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani tog' hududlari yaylov yerlarida Landsat 8-9 va Sentinel-2 Kosmik qurilma ma'lumotlari asosida joyning 2020-2022 yillardagi o'zgarishlar ArcGIS > Raster algoritim > Satelite System > NDVI > LST > atribut ketma-ketligi mexanizmi asosida aniqlangan va amaliyotga

joriy qilingan;

yaylov yerlaridan samarali foydalanish va ularni monitoringi yuritish hamda takomillashtirishga qaratilgan www.yaylov.uz xizmat vazifasida foydalanish uchun web portali yaratilgan va xizmat vazifasida foydalanish uchun amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va aniqligi, olingan ilmiy natijalar “O‘zdavyerloyiha” davlat ilmiy loyihalash institutida aprobatsiya komissiyalari tomonidan ijobiy baholanganligi, zamonaviy GAT uslublari asosida bajarilganligi, ularning matematik qayta hisoblashlar qilinganligi, onlayn dasturning amaliyotda foydalanilganligi hamda oxirgi nashr etilgan uslubiy qo‘llanmalar asosida bajarilganligi, Respublika va xalqaro miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi, Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan e‘tirof etilgan nufuzli xorijiy va Respublika ilmiy jurnallarida chop etilganligi hamda natijalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati masofadan zondlash asosida yaylov vegetativ ko‘rsatkichlarini ilmiy asoslari ishlab chiqilganligi, yaylov yerlardan samarali foydalanish uchun GAT texnologiyalar asosida hisoblash algoritmi mexanizimini ishlab chiqilganligi, yaylov yerlarining monitoringini yuritish jarayoni ketma-ketligi mexanizmi asoslanganligi, xizmat vazifasida foydalanish uchun yaylov web portali (interaktiv xaritalash) dasturi yaratilganligi va amaliyotda qo‘llanilayotgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, tog‘ yaylov yerlari mahsuldorligini saqlash, yaylov yerlarda o‘simliklar bilan qoplanish darajasini belgilash maqsadida tuzilgan 1:500 masshtabli Toshkent viloyatida joylashgan “Rano Eco Village” MChJ yaylov xaritasi, “O‘simliklar dunyosi kadastr ma’lumotlari asosida yaylov va lalmikor yerlardan foydalanish darajasini baholash va ekinlarni vegetatsiya ko‘rsatkichlarini bashoratlash” dasturi, “tabiiy yaylovlar o‘simliklarining monitoringini yuritish ishlarini amalga oshirish bo‘yicha qo‘llanma”lar ishlab chiqilgan bo‘lib, yaylov yerlari monitoringini yuritish, ortiqcha o‘tlatish jarayonlarini aniqlash, transekta va monitoring punktlari sonini oshirish hamda yaylov yerlardan samarali foydalanish uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Masofadan zondlash orqali agrar va ijtimoiy sohalar samaradorligini oshirishda tog‘ yaylovlaridan foydalanishning takomillashtirish tizimi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Agrar va ijtimoiy sohalar samaradorligini oshirishga qaratilgan yaylov yerlar monitoringini yuritish mexanizmi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2022-yil 9-noyabrdagi 05/30-04/8264-son ma’lumotnomasi). Natijada, hududning agrar va ijtimoiy sohalar samaradorligini oshirishga qaratilgan yer tuzish loyihalarini ishlab chiqish hamda yaylov yerlaridan foydalanuvchilar uchun tabiiy o‘simliklar monitoringini yuritish va ulardan samarali foydalanish imkonini bergan.

Yaylov yerlaridagi o‘zgarishlarni aniqlashning ArcGIS > RasterAlgoritm > Satelite System > NDVI > LST > ModelBuilder > atribut ketma-ketligi mexanizmi

ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022-yil 9-noyabrdagi 05/30-04/8264-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu mexanizm asosida Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani hududidagi tog' yaylov yerlarining yillar bo'yicha o'zgarish dinamikasini aniqlash imkonini bergan.

“O'simliklar dunyosi kadastr ma'lumotlari asosida yaylov va lalmikor yerlardan foydalanish darajasini baholash va ekinlarni vegetatsiya ko'rsatkichlarini bashoratlash” dasturiy ta'minoti yaratilgan va amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan berilgan guvohnoma: №DGU 09610. 07.12.2020 y.). Natijada, ushbu dasturiy ta'minotlar yaylov yerlari monitoringini yuritish ishlarini muayyan darajada avtomatlashtirishga hamda sarf etilayotgan ortiqcha mehnat va mablag'larni tejash imkonini bergan.

Yaylov yerlaridan samarali foydalanish va ularni monitoringini yuritish hamda bashoratlashga qaratilgan www.yaylov.uz web portali yaratilgan va amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022-yil 9-noyabrdagi 05/30-04/8264-son ma'lumotnomasi). Natijada, Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi yerdan foydalanuvchilar uchun tog' yaylov yerlaridagi o'zgarishlarni kuzatish, ulardan samarali foydalanish va interaktiv xizmat ko'rsatish imkonini bergan.

“Yer axborot tizimi “YAT” portali» dasturiy ta'minoti yaratilgan va amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan berilgan guvohnoma: №DGU 11540. 17.05.2021-y.). Natijada, ushbu dasturiy ta'minot qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan tezkor ma'lumotlar olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari har yili “O'zdavyerloyiha” davlat ilmiy-loyihalash institutining ilmiy-texnik kengashida ko'rib chiqilgan va ijobiy baholangan, jumladan 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan. Institutning ilmiy-texnik kengashida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ishlar, shundan 1 ta ilmiy uslubiy qo'llanma, 1 ta qo'llanma, 1 ta dasturiy ta'minot, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola jumladan 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 115 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda ob'ekt va predmetlari shakllantirilib, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va tadqiqotning amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tadbiq etish ro'yxati keltirilgan, nashr etilgan ishlar va

dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tog' oldi yaylovlari qishloq xo'jaligidagi o'rni va ahamiyati**” deb nomlangan birinchi bobi uch qismga bo'lingan bo'lib, birinchi qismi 1.1-§.-“**Yaylovlardan foydalanishning nazariy va huquqiy asoslari**” deb nomlangan bo'lib, unda yaylov monitoringini yuritishning nazariy va huquqiy asoslari, mamlakatimizda yaylov monitoringini yuritishning maqsad va vazifasi, uni yuritish uslublari to'g'risida qisqacha tarixiy qiyosiy ma'lumotlar tahlili keltirilgan.

Ikkinchi qismi 1.2-§.-“**Toshkent viloyati tog' yaylovlari umumgeografik holati**” deb nomlanib, respublikamizda yaylov yerlari fondidan foydalanishni boshqarish va nazorat qilish, yer munosabatlarini takomillashtirish, Respublikamizda yaylov yerlardan foydalanish holati bo'yicha ma'lumotlar natijalari tahlili asosli materiallar bilan ochib berilgan.

Uchinchi qismi 1.3-§.-“**Tog' oldi yaylovlariidan foydalanishda xorij tajribasi**” deb nomlanib, rivojlangan mamlakatlarda yaylov yerlardan foydalanish sohasidagi munosabatlar, jumladan yaylov yerlar monitoringini yuritish bo'yicha amalga oshirilgan bir qator ishlar to'g'risida qisqacha tahliliy ma'lumotlar keltirilgan. Rossiya, Ukraina, Belarussiya, Avstraliya, AQSh, Shvetsariya kabi davlatlar yaylov yerlar monitoringini zamonaviy uslublarga asoslangan holda yuritilishi kabi masalalar tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning “**Toshkent viloyati bo'stonliq tumani yer fondi va undan foydalanish**” deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ob'ektining joylashuvi hamda yaylov monitoring ishlar tahlili, yaylov yerlarda monitoringini yuritishda dala tadqiqotlarining ahamiyati va yaylov yerlar monitoringini yuritishda iqlim o'zgarishlarining roli bo'yicha ishlar keltirilgan.

Toshkent viloyatida o'tkazilgan monitoring asosida aniqlangan ma'lumotlarni ko'rib o'tadigan bo'lsak, yaylov yerlar maydoni 445,7 ming gektarni, yani bu umumiy respublikamizdagi yaylov yerlar maydoniga nisbatan 4.7%ni tashkil etmoqda.

1-jadval.

O'zbekiston Respublikasida yaylov yerlar va ularning viloyatlar bo'yicha taqsimlanishi

Hududlar nomlari	pichanzor va yaylovlar (ming ga)	sug'oriladigan (ming ga)	Foiz hisobida (%)
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5265,4	35,8	24,6
Andijon viloyati	21	0,8	0,10
Buxoro viloyati	2557,5		12,0
Jizzax viloyati	704,7		3,5
Qashqadaryo viloyati	1406,5	0,1	6,7
Navoiy viloyati	8890,5		42,1
Namangan viloyati	164,9		0,7
Samarqand viloyati	796,5		3,7
Surxondaryo viloyati	824,6		3,9
Sirdaryo viloyati	19,9		0,1
Toshkent viloyati	445	1,4	2,1
Farg'ona viloyati	9,5	3,9	0,1
Xorazm viloyati	109,3		0,5
Jami:	21215,4	42,0	100 %

Masofadan zondlashda Landsat-8 ma'lumotlarining 2013–2022-yillar davomida olingan vegetatsiya tahliliy ma'lumotlari

№	Yillar kesimida olingan ma'lumotlar	Fasllar			Vegetatsiya indeksi		
		Qish	Yoz	Kuz	Qish	Yoz	Kuz
1.	2013-yil	-	iyun	oktyabr	-	0,62	0,60
2.	2014-yil	fevral	iyun	oktyabr	0,31	0,57	0,53
3.	2015-yil	fevral	iyun	oktyabr	0,37	0,58	0,54
4.	2016-yil	fevral	iyun	oktyabr	0,12	0,58	0,54
5.	2017-yil	fevral	iyun	oktyabr	0,03	0,59	0,58
6.	2018-yil	fevral	iyun	oktyabr	0,11	0,54	0,55
7.	2019-yil	fevral	iyun	oktyabr	0,36	0,51	0,56
8.	2020-yil	fevral	iyun	oktyabr	0,3	0,64	0,52
9.	2021-yil	fevral	iyun	oktyabr	0,16	0,62	0,56
10.	2022-yil	fevral	iyun	oktyabr	0,3	0,58	0,50

Tadqiqot davrida olingan ma'lumotlar bo'yicha tahlil qilingan natijalari quyidagi 2013–2022-yillarda yaylov yerlarni masofadan zondlash ma'lumotlari asosida monitoring qilish natijasida yaylov maydonlarida vegetatsiya davri o'zgarishini ko'rishimiz mumkin. Sun'iy yo'ldosh tasvirlarining termal infraqizil (TIR) diapazonlari ko'pincha yer yuzasi xususiyatlarining biogeokimyoviy hossalarni aniqlashda ishlatilib, sun'iy yo'ldosh tasvirlarining termal infraqizil chiziqlaridan yer yuzasi haroratini (LST) aniqlash juda muhim, chunki u yer yuzasi komponentlariga bog'liq va vaqti-vaqti bilan o'zgarib turadi.


Masofadan zondlashda Sentinel-2 kosmik qurilmasining 2015–2022-yillar davomida olingan vegetatsiya tahliliy ma'lumotlari

№	Yillar kesimida olingan ma'lumotlar	Fasllar			Vegetatsiya indeksi		
		Qish	Yoz	Kuz	Qish	Yoz	Kuz
1.	2015-yil	-	iyun	oktyabr	-	0,61	0,58
2.	2016-yil	fevral	iyun	oktyabr	0,31	0,56	0,53
3.	2017-yil	fevral	iyun	oktyabr	0,37	0,57	0,54
4.	2018-yil	fevral	iyun	oktyabr	0,12	0,58	0,52
5.	2019-yil	fevral	iyun	oktyabr	0,03	0,59	0,55
6.	2020-yil	fevral	iyun	oktyabr	0,11	0,65	0,54
7.	2021-yil	fevral	iyun	oktyabr	0,36	0,60	0,55
8.	2022-yil	fevral	iyun	oktyabr	0,31	0,55	0,54


LST tabiiy o'simliklar taqsimotining o'zgarishini nazorat qiluvchi eng muhim xususiyatlardan biridir. Eng ko'p qo'llaniladigan vegetatsiya indeksi o'simliklarni me'yorlashtirilgan farq indeksi (NDVI) bo'lib, u (LST) ni hisoblashda qo'llaniladi. (LST) – (NDVI) korrelyatsiyasiga ta'sir qiluvchi bir qancha omillar, xususan iqlim, o'simlik turlari, yerdan foydalanish, urbanizatsiya va shu kabi boshqa omillar mavjud.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda tuproq ustki qatlami harorati va o'simliklarni me'yorlashtirilgan farqi indeksiga bag'ishlangan ko'plab so'nggi tadqiqot ishlarda LST - NDVI korrelyatsiyasining aniq modelga ega ekanligi o'z tasdig'ini topgan. Bizning ham tadqiqotlarimizda yuqorida keltirib o'tilgan mexanizmlar va algoritmlar aks ettirilgan. Tadqiqotlar davomida LST-NDVI korrelyatsiyasi o'zimizning mintaqaga moslangan holda amalga oshirilgan. Tadqiqot ob'ektining umumiy geografik joylashishi (koordinatasi), tuproq qatlami, iqlimi, aholisi va gidrografik obektlari kiritib o'tilgan. Masofadan zondlash yordamida olib borilgan monitoringning ustuvorligi uning eng avvalo real vaqt rejimida ishlashidadir.

Tadqiqot ishi 2013, 2014, 2015, 2016 va 2022-yillar mavsumida Landsat-8 sun'iy yo'ldosh sensori yordamida Toshkent viloyati Bo'stonlik tumanining tog'oldi yaylov yerlarning holatida (LST) - Land surface temperature tuproq ustki qatlami harorati va (NDVI - Normalized difference vegetation index) o'simliklarni me'yorlashtirilgan farq indeksi bilan o'zaro bog'liqligi o'rganildi.



1-rasm. Sentinel-2 ma'lumotlaridan foydalangan holda o'simlik qoplami va vegetatsiyasini monitoring qilish mexanizmi



2-rasm. Landsat-8 ma'lumotlaridan foydalangan holda o'simlik qoplami va vegetatsiyasini monitoring qilish mexanizmi

Bo'stonliq tumani o'rtacha (LST) tuproq ustki qatlami harorati tahlilida vaqt o'tishi bilan asta-sekin iqlimni o'simliklarga bo'lgan ta'siri ortib boraganligi aniqlanildi. O'rtacha NDVI qiymati Landsat-8-9 ma'lumotlariga ko'ra 0.63 ni tashkil etgan, Sentinel-2 ma'lumotlaridan ham uni yuqoriligini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotlarimiz davomida kuchli LST-NDVI korrelatsiyasi kuzatildi. Korrelatsiya koeffitsenti (LST)si o'rtachadan yuqori bo'lgan hududda balandroq va (LST)si o'rtachadan pastroq bo'lgan hududda kamroq ekanligi kuzatildi. Korrelatsiya koeffitsientining qiymati vaqt o'tishi bilan kamaydi. O'rganilayotgan hududning LST va NDVI munosabatlari antropogen va oshiqcha o'tlatish kabi omillar bilan ham chambarchas bog'liqligi ko'rib chiqildi. Yuqorida keltirilgan 1 va 2-jadvalda masofadan zondlash yordamida tadqiqot ob'ektidan olingan vegetatsiya ma'lumotlari natijalari keltirib o'tilgan.

2013-yildan 2022-yilgacha 9-yillik ma'lumotlar (LST)ning hududning shahar qismiga yaqin joylarida harorat sezilarli darajada issiq va shaxardan uzoq hududlar esa havo harorati sezilarli darajada past (sovuq) ekanligi va vegetatsiya jarayonlari shu sababli ham kechroq boshlanishini ko'rishimiz mumkin. Yillik (LST) ko'rsatkichining o'rtacha qiymati 41,9°C (2018) va 53°C (2021) orasida. Shahar hududiga yaqin massivlarda ya'ni o'rganilayotgan hududning shimoli-g'arbiy va janubi-sharqiy qismlarida (LST) ko'rsatkichlari yuqori-53°C, (LST) ning past qiymatlari tog'oldi va tog' hududlarida kuzatildi. Bunda tarqoq daraxtlar, suv-botqoq yerlari va suv havzalari qish faslida yog'gan yog'in miqdori, qor va muzliklarni mavjudligi hamda tuproq ustki qatlami harorati o'rganildi (3-5-jadvallar).

4-jadval

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani "Bog'iston" massivi o'simliklarining me'yorlashtirilgan vegetatsiya ko'rsatkichlari (NDVI)

Yil, oy, kun	NDVI	Maks t°C	Min t°C	Shamol tezligi (m/s)	Namgarchilik (%)
2020-09.01-09.22	0,45	23,19	8,69	2,85	31,87
2020-08.01-08.31	0,59	27,74	14,35	2,86	29,27
2020-07.01-07.31	0,51	30,00	15,85	3,23	25,79
2020-06.01-06.30	0,31	26,81	12,46	3,20	24,19
2020-05.01-05.31	0,21	22,90	10,00	3,11	46,61
2020-04.01-04.30	0,29	16,26	5,98	2,77	58,28
2021-09.01-09.22	0,42	20	7,98	3	33
2021-08.01-08.31	0,58	24	14,5	3,5	29
2021-07.01-07.31	0,52	29	16,1	3,20	27
2021-06.01-06.30	0,33	26	13,2	4,20	22
2020-05.01-05.31	0,24	23	11,1	3	44
2021-04.01-04.30	0,27	18	5,9	2,5	55
2022-09.01-09.22	0,43	24	9,8	2,85	30
2022-08.01-08.31	0,60	27	15,7	2,80	28
2022-07.01-07.31	0,56	30	17,2	3,20	25
2022-06.01-06.30	0,30	26	12,3	3,10	24
2022-05.01-05.31	0,25	22	12,87	3	46
2022-04.01-04.30	0,28	19	7,98	2	58

2013-yilning uch fasli (qish, yoz, kuz)da masofadan zondlash yordamida olingan ma'lumotlar qayta hisoblanib, joyning iqlim ma'lumotlari **Esri ArcGIS** dasturining **ArcMap** ilovasida qayta ishlandi. Bunda har bir faslda olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, yaylovning o'rtacha vegetatsiya ko'rsatkichini hisoblash uchun yaylovlarni monitoring qilish davrida iqlimning ya'ni tuproq ustki qatlamining harorati aniqlanadi. 2013-yil fevral oyining so'nggi 10 kunligi na'muna sifatida tanlab olinib, yoz va kuz fasllarining ham aynan birinchi 10 kunligi va so'nggi 10 kunligi olingan. Bunda bahor faslining erta kelishi yoki qishning sovuq kunlari tugamasdan havo harorati keskin ko'tarilishi bilan farqlanadi.

Tadqiqotlar davrida Bo'stonliq tumani "Bog'iston" massividagi 4,3 gektarlik pilot uchastkasida ($41^{\circ}88'16.7''$; N $70^{\circ}33'99.4''$ E) yaylovlardan foydalanish bo'yicha me'yorlashtirilgan vegetatsiya ko'rsatkichlari indeksi (NDVI)ni baholash maqsadida olib borilgan tadqiqotlarida mazkur massiv yaylovlardan foydalanish yil mobaynida juda qulay ekanligini ko'rsatib o'tildi. Jadvalda keltirilganidek, mazkur hududda 2020–2022-yillarda NDVI 0,60 ni tashkil etib, avgust oyida "a'lo" (0,60-1,0) bo'lganligi, yaylovlar holatining juda yaxshi ekanligidan dalolat byeradi. Sababi, bu yerda birinchidan, yoz oylarida havo haroratining o'rtacha maksimal ko'rsatkichlari 23-30°C ni, minimal ko'rsatkichlari esa 10-15°C ni tashkil etadi, ikkinchidan bugungi kunda mazkur yaylovlar o'simlik qoplami degradatsiya jarayoniga uchramaganligi aniqlandi (6-jadval).

Umuman olganda, 2020–2022-yillar qish va bahor oylarida ob-havo sharoitlarining noqulay kelganligiga qaramasdan, Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani "Bog'iston" massivi yaylov yerlarining holatini qoniqarli deb hisoblash mumkin. Efemer va efemeroidlar bu yilgi kech yog'ingarchiliklar sababli yaxshi rivojlanmagan bo'lsada buta, yarim buta va yirik o'simliklar yaxshi o'sgan.

Tadqiqotlar davomida massivlarni to'liq o'rganilishiga aholi yashash joylarini hisobi, mahalliy aholining chorva mollari bosh soni aniqlanildi. Yuqorida amalga oshirilgan geobotanik tadqiqotlar bazasidan foydalangan holda o't bilan qoplanish darajasi, dala kuzatuv ishlari, masofadan zondlash va kameral-analitik va kartografik ishlar bajarildi. Quyida massivlar kesimida olingan ma'lumotlar va geobotaanik natijalar keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyaning **"Tog' yaylov tadqiqotlarida qo'llanilgan usularni takomillashtirish"** deb nomlangan uchinchi bobida model builder algoritmlari va avtomatlashtirish bosqichlari keltirilgan bo'lib, quyidagi ketma ketlikda bajariladi.

Avtomatlashtirish bosqichlari:

1. Geografik joylashuviga ega bo'lgan elektron raqamli ma'lumotlarni eksport qilish;
2. Dala tadqiqot natijalarini GSM tarmog'i orqali geoma'lumotlar bazasiga integratsiyalash;
3. Dala tadqiqot natijalariga tayanib geostatistik tahlillarni amalga oshirish.

ArcGIS dasturining ArcMap ilovasida yaratilgan elektron raqamli kartalarni mavzuli qatlamlari modullashtirish ob'ekti sanaladi.

GPS qurilmasi yordamida bajarilgan dala tadqiqot natijalarini ArcGIS dasturiga

yuklash va geostatistik tahlillarni amalga oshirish quyida keltirilgan tartibda amalga oshiriladi (5-rasm):

- komputerdan Mobile mapper office dasturi yuklanadi;
- tanlangan hududning ma'muriy-hududiy chegaralari yuklab olinadi;
- fayl menyusi orqali ОТКРЫТЬ qatori aktivlashtiriladi;
- hosil bo'lgan ОТКРЫТЬ darchasidan GPS qurilmasida tadqiq qilingan dala tadqiqot natijalari manzili ko'rsatiladi;
- *.MMJ format birligidagi GPS qurilmasi fayllari belgilanadi va ОТКРЫТЬ tugmachasi bosiladi;
- ОТКРЫТЬ ДАННЫХ GIS nomi ostida darcha namoyon bo'ladi va koordinatalar tizimi hamda atributiv ustunlar ko'zdan kechiriladi;
- ОТКРЫТЬ tugmachasi bosilgach, ishchi stolga GPS qurilmasining nuqta ko'rinishidagi vektor qatlam ma'lumotlari vizuallashtiriladi;
- fayl menyusi orqali *.Shape ArcGIS format birligiga eksport qilinadi;
- ArcGIS dasturining ArcMap ilovasiga *.Shape formatidagi vektor qatlamlar import qilinadi;
- nuqta ko'rinishidagi vektor qatlamlarning geografik joylashuvi ko'zdan kechiriladi;
- geostatistik tahlil paneli orqali dala tadqiqot natijalari sifat jihatidan tahlil qilinadi;
- nuqta ko'rinishidagi vektor qatlamning tahlil uchun tegishli axborot ustuni tanlanadi;
- sifatli ranglar usuli yordamida sektorlash jarayoni amalga oshiriladi;
- tahlil natijalariga ko'ra xatoliklar tenglashtiriladi;
- yerlarning sifat jihatini izohlovchi ranglar klassifikatsiyalanish bosqichida etalonlashtiriladi;
- klassifikatsiyalarni etalonlashtirishda natural sonlar bilan yaxlit birlikka keltiriladi;
- ranglar vizuallashtirishini yaylovning rangi ko'rinishiga keltirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi;
- klassifikatsiya xotiraga olinadi va **RGB** spektr ranglari yordamida elektron raqamli karta bilan uyg'unlashtiriladi;
- yerdan foydalanuvchilar va yer konturlari aktivlashtirilib atributiv ma'lumot ustunlarining axborotlari vizuallashtiriladi.

Qishloq xo'jaligi yerlarini sifat jihatidan yuritishni avtomatlashtirish va modullashtirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi (3-rasm):

- **ArcMap** ilovasining **Arc catalog** oynasidan yangi **Arc Toolbox** qurilmalar paneli yaratiladi;
- **Arc Toolbox** qurilmalar paneli tafsilotlaridan yangi qatori orqali modul yaratiladi;
- hosil bo'lgan modul oynasiga algoritmlash ketma-ketligi sxemalashtiriladi;
- kerakli qurilmalar **Arc Toolbox** qurilmalar panelidan yuklab olinadi;
- sxematik ko'rinishidagi algoritmlar o'zaro bog'lanadi;
- algoritmlarni ishlab chiqishda bir-qancha **Toolbox** qurilmalarini o'zaro

bog'lash mumkin;


- qo'shish buyrug'i orqali kyerakli bo'lgan vektor qatlamlarni yuklash va algoritmlash jarayonida ishtirokini ta'minlash mumkin;

- algoritmlashda instrumentlarga tuzatmalar kiritish mumkin;

- yoki kiritilgan tuzatmalarga o'zgartirish berish mumkin;

- modullashtirishda interfeyslarga qoidalar va izohlar berish uchun qurilmalar paneli tafsilotlaridan kiriladi;

- yakunlangan modulga start beriladi va tekshiriladi. Muvafaqiyatli yakunlangan modul sxemalari takrorlanmas ranglar bilan avtomatik tarzida vizuallasadi;




3-rasm. ArcGIS dasturi interfeysi va vegetatsiya ko'rsatkichlari

- geostatistik tahlilni avtomatik tarzida amalga oshirish uchun yaratilgan modulning algoritmi;


- tegishli hudud bo'yicha yerdan foydalanuvchilarni belgilash va atributiv ma'lumotlarini Excel jadvaliga eksport qilish modulining algoritmi;

- yerdan foydalanuvchilarni yer maydonlari markaziga nuqtali ko'rinishida vektor qatlamini yaratish va GPS qurilmasiga yuklash uchun eksport qilish modulining algoritmi.




4-rasm. Qishloq xo'jaligi yerlarida monitoring yuritishni avtomatlashtirish va modullashtirishning 1-bosqichi


Bunda, ArcGIS dasturiy ta'minoti yordamida Earth explorer dasturidan yuklab olingan kosmik ma'lumotlarni qayta ishlash uchun **ArcToolbox** uskunasiidan foydalanib algoritmlar ketma ketligida hisoblanadi. So'ngra **ArcToolbox** uskunalar panelidan foydalanib **Raster calculation** oynachasi ochiladi va vegetatsiya index formulasi (NDVI) $\text{Band8} - \text{Band5} / \text{Band8} + \text{Band5}$ hisoblandi. Hisoblangan qiymatlar **Model Builder** bilan raqamlashtirish orqali avtomatlashtirilgan tizimlarga o'tkaziladi (5, 6, 7-rasmlar).



5-rasm. Qishloq xo'jaligi yerlarida monitoring yuritishni avtomatlashtirish va modullashtirishning 2-bosqichi



6-rasm. Qishloq xo'jaligi yerlarida monitoring yuritishni avtomatlashtirish va modullashtirishning 3-bosqichi



7-rasm Qishloq xo‘jaligi yerlarida monitoring yuritishni avtomatlashtirish va modullashtirishning 4-bosqichi

Dissertatsiyaning “**Masofadan zondlash orqali tog‘ yaylov yerlaridan foydalanish tizimini takomillashtirish usullari**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanida 2018-yilda olib borilgan yaylov geobotanik va monitoring ishlari natijalari dala va kameral sharoitda o‘rganilib tahlil qilindi. 2 xil turdagi kosmik qurilmalardan olingan raster suratlarda foydalanish orqali joyning NDVI ko‘rsatkichlari aniqlanildi hamda LST orqali takomillashtirildi. Turli xil usullar yordamida monitoring qilishning qiyosiy tavsifi, dasturiy taminotlarda olingan natijalarni qayta ishlash orqali joyning real vegetatsiya xaritalar yaratildi.

1200 gektarlik yaylov yer maydonini Landsat-8-9 va Sentinel-2 yordamida kameral sharoitda dala tadqiqotlari materiallari bilan 2 nafar yer tuzuvchi operator tomonidan tadqiq qilishga sarflangan vaqt 7 kunni tashkil etdi. Oylik ish haqqi hisobida talab etilgan xarajat esa 4 mln 440 ming so‘mni tashkil etdi.

Yaylov yerlar monitoringini yuritish va avtomatlashgan tizimni modullashtirishda integratsiyaning o‘rni muhim sanaladi. GPS qurilmasida dala tadqiqot natijalarini amalga oshirish uchun ArcGIS dasturida yaratilgan elektron raqamli karta, yerdan foydalanuvchilar va ularning geografik joylashuviga ko‘ra, maydon markazlariga joylashtirilgan nuqtali ko‘rinishidagi vektor ma’lumotlari yuklanadi. Yuklangan vektor ma’lumotlariga tayangan holda GPS qurilmasida yerdan foydalanuvchilarning umumiy yer maydoni, ekin turlari, irrigatsiya tarmoqlari va shu kabi ob’ektlar tadqiq qilinadi. Yaylovning sifati va tasniflarini tadqiq qilish uchun, yerdan foydalanuvchilarning umumiy yer maydonlari markaziga o‘rnatilgan nuqtali ko‘rinishdagi vektor qatlamlar GPS qurilmasiga yuklanadi.

“**Yaylov yerlarni monitoringini yuritishning iqtisodiy ko‘rsatkichlari**” deb nomlangan bo‘limda, yaylov monitoringini yuritishda yer tuzish, yer kadastri hamda geodeziya va geoinformatika bo‘yicha mutahasislari tomonidan bajarilmoqda. An’anaviy hamda masofadan zondlash usullari yordamida hududning yaylov monitoring ishlari taqqoslash maqsadida (5 va 6-jadval)ni keltirib o‘tamiz.

Yaylov yerlarni masofadan zondlashning iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yaylov yerlarni masofadan zondlashning iqtisodiy ko'rsatkichlari (bir oyda)					
№	Nomi	Birlik	Soni	Narhi, so'mda	Jami, so'mda
1	Muhandis geodezist	nafar	1	6,500,000	6,500,000
2	Kameral muhandis	nafar	1	5,500,000	5,500,000
3	Kameral muhandis	nafar	2	3,500,000	7,000,000
4	Haydovchi	nafar	1	5,000,000	5,000,000
5	Kameral materiallar	dona	24	bepul	bepul
6	Yoqilg'i	litr	780	8,500	6,630,000
7	GPS+rover	dona	1	900,000	900,000
8	Abonent tolovi	dona	1	1,500,000	1,500,000
9	Oziq ovqat	dona	52	50,000	2,600,000
10	Monitoring maydoni	gektar	250000	bepul	
	Jami:				35,630,000

Yaylov yerlarni masofadan zondlashda iqtisodiy ko'rsatkichlari an'anaviy usulga qaraganda bir muncha harajatni kamaytirganini korishimiz mumkin. Dala tadqiqotlariga sarflanadigan ishchi kuchini ham 2 barobarga qisqartirilganini ko'rishimiz mumkin.

Yaylov yerlarni an'anaviy usulda monitoring qilishning iqtisodiy ko'rsatkichlari (bir oyda)

Yaylov yerlarni an'anaviy usulda monitoring qilishning iqtisodiy ko'rsatkichlari					
№	Nomi	Birlik	Soni	Narhi, So'mda	Jami, So'mda
1	Bo'lim boshlig'i	nafar	1	6,500,000	6,500,000
2	Bosh mutahasis	nafar	1	5,800,000	5,800,000
3	Yetakchi yer tuzuvchi muhandis	nafar	2	4,500,000	9,000,000
4	Haydovchi	nafar	1	5,000,000	5,000,000
5	Dala anjomlari	dona	37	10,000	370,000
6	Yoqilg'i	litr	780	8,500	6,630,000
7	Kameral	nafar	4	6,000,000	24,000,000
8	Oziq ovqat	dona	52	50,000	2,600,000
9	Monitoring maydoni	gektar	7500		
	Jami:				59,900,000

Yaylov yerlarni an'anaviy usulida iqtisodiy ko'rsatkichlari esa masofadan zondlashga qaraganda bir muncha harajatlarni oshganini korishimiz mumkin. Dala tadqiqotlarida sarflanadigan ishchi kuchini ham masofadan zondlashga qaraganda 2 barobarga oshgan. Iqtisodiy sarf harajatlari ham deyarli 1,5 barobarni tashkil etadi. Bundan ko'rinib turibdiki Masofadan zondlash usuli yaylov monitoringida iqtisodiy samaradorlik koefitsenti yuqoridir.

XULOSALAR

1. Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani Pargos, Amir Temur, Bog'iston massivlaridagi mavjud reliefi murakkab bo'lgan jami 59,791 ming gektar tog' tabiiy yaylov yerlaridagi maydonlar hisobini yuritish hamda iqlim ko'rsatkich ma'lumotlarini real vaqt rejimida o'rganish orqali yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyati yaratildi.

2. Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida olib borilgan geobotanik tadqiqotlar natijasida 59, 791 ming gektar yaylov yerlarining o't bilan qoplanish darajasi o'rganildi hamda o't bilan qoplanish darajasi 2022 – yilga nisbatan qolgan yillarda 0,3 sentenerga kamayganligini ko'rsatadi.

3. Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida joylashgan massivlar kesimida masofadan zondlash ma'lumotlari asosida 2020-2022 yil iqlim ko'rsatkichlari tahliliga ko'ra tadqiqot ob'ektining tabiiy yaylov o'simliklari vegetatsiya va unib chiqish davri aynan iqlim ko'rsatkichlariga bog'liqligi aniqlanib, yaylov monitoringida aniq ma'lumotlar taqdim etishda muhim rol o'ynaydi.

4. Agrar va ijtimoiy sohalar samaradorligini oshirish uchun yaylovlarda prognozlash tizimini ArcGIS > Modelbuilder > Satellite System > NDVI > LST > ModelBuilder > atributiv ketma-ketlik mexanizmi asosida monitoring ishlarini tashkil etish samarali hisoblanadi.

5. Tog' yaylov yerlarini monitoring qilishda bugungi kunda eng ko'p qo'llanilayotgani o'rta fazoviy o'lchamlar bilan sun'iy yo'ldosh tasvirlariga ega bo'lgan kosmik qurilmalar Landsat-8-9 lardan foydalanish dala ishlarini qisqa vaqtda bajarish, aniqligi yuqori bo'lgan ma'lumotlarni tezkorlik bilan olish imkonini berishi asoslantirildi.

6. Yaylov monitoringi yuritishda masofadan zondlash ma'lumotlaridan foydalanishda tarixiy ma'lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi. Demak, tog' yaylov yerlarida ham dala kuzatuv ishlari, masofadan zondlash, kameral-analitik hamda kartografik ishlarni olib borish maqsadga muvofiq.

7. O'zbekiston Respublikasi sharoitida tog' va tog' yaylov yerlari monitoringini o'tkazish, yaylov yerlarini muhofaza qilish hamda mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlashda yuqori aniqlikga ega bo'lgan elektron xaritalarni yerdan foydalanuvchilarga 7-10 metrli multispektral ma'lumotlar asosida foydalanish tavsiya etiladi.

8. Atributiv ma'lumotlarni eksport (yuklash) qilish, LocusGIS dasturi yordamida kameral sharoitda ishlovchilar uchun yer maydonlarining vektor ko'rinishidagi qatlamlarni avtomatik tarzida yaratish va fazoviy ma'lumotlarni geostatistik tahlil qilish hamda ArcGIS dasturi asosida avtomatik rejimda vizuallashtirish uchun xizmat qiladigan Model Builder algoritmidan amaliyotda foydalanish uchun tavsiya etiladi.

9. Hozirgi vaqtda O'zbekiston sharoitida fazoviy ruxsat turlarining yagona tasnifi mavjud emas, shuning uchun kelgusida yaylov monitoringi tadqiqotlari uchun yuqori aniqlikdagi bepul bo'lgan sun'iy yo'ldosh tizimlari Copernicus sun'iy tarmoqlari tizimlariga kiruvchi Landsat-8-9 maydon qamrab olish masofasi yuqori bo'lganligi bois, Sentinel-2 esa fazoiviy rezalutsiyasi 10 m va undan kam bo'lganligi sababli aynan shu kabi ma'lumotlar bazasidan foydalanish tavsiya etiladi.

10. Masofadan zondlash orqali yaylov yerlar monitoringini yuritishning ArcGIS > RasterAlgoritim > Satellite System > NDVI > LST > atributlar ketma-ketligidan foydalanish mexanizmi asoslangan bo'lib, olingan ma'lumotlar, ishlab chiqilgan dasturlar va tavsiyalar ishlab chiqarish amaliyotida keng foydalanish uchun tavsiya etiladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА БАЗЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
DSc.05/07.06.2024.Qx.13.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ТАШКЕНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ АГРАРНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ГОСУДАРСТВЕННЫЙ НАУЧНО-ПРОЕКТНЫЙ ИНСТИТУТ
«УЗДАВЕРЛОЙИХА»**

ХАКИМОВ БОХОДИРЖОН БАХТИЁРЖОН УГЛИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГОРНЫХ ПАСТБИЩ
В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ АГРАРНОГО И СОЦИАЛЬНОГО СЕКТОРА
(на примере Ташкентской области)**

06.01.10-«Землеустройство, кадастр и мониторинг земель»

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером №B2020.3.PhD/Qx647.

Диссертация выполнена в государственном научно-проектном институте «Уздаверлойиха».

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.tdau.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Рузметов Максуд Исмаилович**
доктор сельскохозяйственных наук, профессор

Официальные оппоненты: **Сафаров Эшкобил Юлдашевич**
доктор технических наук, профессор

Гофиров Азим Жумаевич
Доктора философии сельскохозяйственным наук,
доцент

Ведущая организация: **Самаркандский государственный архитектурно-строительный университет имени Мирзо Улугбека**

Защита диссертации состоится «_____» _____ 2024 года в _____ на заседании разового научного совета на базе Научного совета DSc.05/07.06.2024.Qx.13.03 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном аграрном университете. Адрес: 100164, Ташкентская область, Кибрайский район, улица Университетская, 2. Тел.: (+99871) 260-48-00, факс: (+99871) 260-38-60, e-mail: tuag_info@edu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного аграрного университета (зарегистрирована за номером №_____). Адрес: 100164, Ташкентская область, Кибрайский район, улица Университетская, 2, Тел.: (+99871) 260-50-43.

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2024 года.
(протокол реестра №_____ от «_____» _____ 2024 года).

Н.Б.Раупова

Председатель разового научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.б.н., профессор

Г.С.Содикова

Учёный секретарь разового научного
совета по присуждению учёных
степеней, д.б.н., доцент

У.Норкулов

Председатель научного семинара при
разовом Научном совете по
присуждению учёных степеней,
д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире общая площадь пастбищных земель составляет 3,377 млрд. га. Из них 2,266 млн. га (67,1%) составляют пастбища и сенокосы, используемые в сельском хозяйстве, 827 млн. га (25,4%) постоянные луга и пастбища, а 790 млн. га (23,4%) составляют постоянно используемые пастбища в стабильном состоянии.¹ С помощью дистанционного зондирования важно предотвратить процессы деградации пастбищных угодий, восстановить продуктивность пастбищных угодий и спрогнозировать их эффективное использование. С этой точки зрения важными считаются вопросы правильного и эффективного использования пастбищных земель.

В мире проводятся научно-практические исследования, направленные на определение изменений, происходящих на пастбищах под воздействием различных факторов, и определение показателей деградации с помощью дистанционного зондирования. В связи с этим особое внимание уделяется научно-исследовательским работам, направленным на создание механизма мониторинга пастбищных угодий средствами дистанционного зондирования, определение уровня растительного покрова, средней продуктивности горных пастбищ и проведение мониторинга пастбищных земель с высокой точностью.

Пастбищные угодья составляют 46,5% от общей площади земельного фонда нашей республики (21,1 млн. га). В ходе исследований (35-40 лет) было отмечено, что количество и размеры пастбищных растений уменьшаются в результате деградации 78 процентов площади. В стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены важные стратегические планы по «...освоению 464 000 га новых и заброшенных земель, усовершенствованию системы агросервиса на научно инновационной основе, обеспечению агропромышленных предприятий сырьем, а также увеличению объема производства в 1,5 раза». По этой причине усовершенствование использования пастбищных угодий с помощью дистанционного зондирования имеет большое значение в дальнейшем развитии сельского хозяйства в нашей стране.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Законе Республики Узбекистан «О пастбищах», принятый 21 мая 2019 года, Постановлении Президента Республики Узбекистана от 10 июня 2022 года № ПП-277 «О мерах по созданию эффективной системы борьбы с деградацией земель», в Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан от 23 декабря 2000 года № 496 «Об утверждении Положения о мониторинге земель в Республике Узбекистан», № 299 от 23 апреля 2018 года «О дальнейшем совершенствовании порядка определения границ административных районов, разграничения земельных ресурсов и проведения геоботанических

¹ <https://www.bigenc.ru/c/pastbishche-12b000>

